

TIJORAT BANKLARIDA AKTIVLAR VA PASSIVLARNI BOSHQARISH JARAYONLARI VA ULARNING MOLIYAVIY BARQARORLIKKA TA'SIRI

Yuldasheva Umida

TDIU, "Xalqaro moliya"
kafedrası DSc., professor
umida_yu@mail.ru

Negmurodova Mulkiya

TDIU, Moliya Fakulteti talabasi
mulkiyanr@gmail.com

Annotatsiya: ushbu maqolada tijorat banklarida aktivlar va passivlarni boshqarish jarayonlari hamda ularning moliyaviy barqarorlikka ta'siri o'rganiladi. Tadqiqotda bank balansining asosiy tarkibiy qismlari, ya'ni aktivlar tuzilmasi, kredit portfelining sifati, likvid aktivlar ulushi hamda passivlar bo'yicha resurslar bazasining barqarorligi va muddat tuzilmasi tahlil qilinadi. Aktiv va passivlarni samarali boshqarishning nazariy asoslari hamda ularning foiz, likvidlik va kredit risklarini kamaytirishdagi ahamiyati ilmiy manbalar va amaliy ko'rsatkichlar asosida ko'rib chiqiladi. Shuningdek, O'zbekiston tijorat banklarining so'nggi yillardagi statistik ma'lumotlari asosida balans boshqaruvi tendensiyalari yoritiladi va xulosalar beriladi.

Kalit so'zlar: tijorat banklari, aktivlar, majburiyatlar, daromad, depozit, kredit portfeli, moliyaviy barqarorlik, rentabellik, likvidlilik.

Kirish

Tijorat banklari moliyaviy tizimning eng muhim bo'g'ini bo'lib, ularning barqaror faoliyati mamlakat iqtisodiy o'sishining asosiy omillaridan biri sanaladi. Banklar tomonidan amalga oshiriladigan operatsiyalarning samaradorligi, avvalo, ularning aktivlari va passivlarini to'g'ri boshqarish darajasiga bevosita bog'liqdir. Aktivlar bankning daromad keltiruvchi resurslari sifatida qaralsa, passivlar uning mablag'lar manbai va majburiyatlarini aks ettiradi. Shu bois, aktiv va passivlar tarkibining mutanosibligi, ulardan foydalanish samaradorligi hamda risklarning vaqtida aniqlanishi bankning moliyaviy barqarorligini ta'minlovchi asosiy mezonlardan biridir. Iqtisodiy manfaat odatda aktivlarda pul oqimi shaklida namoyon bo'ladi. Naqd puldan tashqari har qanday resurs aktivga aylanishi uchun alohida yoki biron bir boshqa resurs bilan birgalikda bevosita yoki bilvosita pul oqimini taminlashi zarur.

Bank aktivlari, bankning aktiv amalyoti natijasida shakllanadi, ya'ni bank balansini likvid holda ushlab turib, o'z va jalb qilgan mablag'larini foyda olish

maqsadida joylashtirish faoliyatini taminlaydi. Bank aynan aktiv amaliyotlari natijasida daromadning asosiy qismini oladi. Bank aktivlari ichida eng katta ulushni kreditlar egallaydi, chunki kredit qo'yilmalari bankka foiz ko'rinishida daromad keltiradi. Kreditlar jismoniy shaxslar, korxona va tashkilotlarga beriladigan qisqa, o'rta va uzoq muddatli qarzlarini o'z ichiga oladi. Shuningdek, banklar o'z mablag'larini davlat qimmatli qog'ozlariga, korporativ obligatsiyalarga yoki boshqa investitsiya instrumentlariga yo'naltirish orqali ham daromad oladi. Aktivlar sifatini baholash bankning moliyaviy barqarorligini aniqlashda muhim ko'rsatkichdir.

Banklarning yetarli resursga ega bo'lishi o'ta dolzarb vazifalardan biri bo'lganligi uchun banklar passiv operatsiyalarini samarali tashkil etish va boshqarish bo'yicha o'z siyosatiga ega bo'ladi. Tijorat banklari moliyaviy resurslarini boshqarishda asosiy e'tibor bank balansi passivdagi mablag'larning manbalariga qaratiladi. Bank passivlari tarkibida jismoniy va yuridik shaxslarning depozitlari, banklararo qarzlar, chiqarilgan qimmatli qog'ozlar, shuningdek, bankning ustav kapitali, qo'shimcha kapitali hamda taqsimlanmagan foydasi kabi manbalar mavjud bo'ladi. Passivlar hajmining barqarorligi va tarkibining sifatli bo'lishi bankning likvidligi, to'lovga qobiliyati hamda umumiy moliyaviy barqarorligini ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Markaziy Bankining "Tijorat banklarida aktivlar sifatini tasniflash va aktivlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash uchun zaxiralar shakllantirish hamda ulardan foydalanish tartibi to'g'risidagi nizom" ida ham tijorat banklarining aktivlarini sifat jihatdan to'g'ri baholash va ularni risk darajasiga qarab tasniflash tartibi belgilangan [1]. Mazkur tartib nafaqat bank aktiv portfelining holatini monitoring qilishda, balki kredit risklarini kamaytirish, aktivlar barqarorligini ta'minlash hamda bankning umumiy moliyaviy barqarorligini mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega.

Shuni ta'kidlash joizki, banklarning aktivlarini samarali shakllantirish va passivlarini optimal boshqarish ularning likvidlik, rentabellik va risk darajasini belgilaydi. Shu bilan birga, kapital yetarliligi va risklarni boshqarish tizimi banklarning barqaror rivojlanishini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Bank aktivlari - bu bankka tegishli hamda moddiy qiymatga ega bo'lgan qiymatliklar: naqd pul mablag'lari, qarzga berilgan mablag'lar, binolar va asbob-uskunalaridan tashkil topadi. Bulardan tashqari, bankda nomoddiy aktivlar ham mavjud bo'lib, bular o'zlarining moddiy shakliga ega bo'lmaydilar, ammo bankning asosiy faoliyatidafaol ishtirok etadi. Shuningdek, bank aktivlari, passivlari hamda ularning samaradorligini o'rganish iqtisodchi olimlar tomonidan tahlil qilinadigan dolzarb mavzuga aylangan.

Xorijiy akademiklardan biri bo'lgan Moorad Choudhryning ta'kidlashicha, tijorat banklari faoliyatining barqarorligi va moliyaviy barqaror tizimning shakllanishi, avvalo, aktiv va passivlarni samarali boshqarish jarayoniga bog'liq bo'lib, bu jarayon bank boshqaruvining asosiy strategik yo'nalishi hisoblanadi [2]. Uning fikricha, aktiv va passivlarni boshqarish banklar uchun faqat daromadlilikni oshirish vositasi emas, balki ularning uzoq muddatli barqarorligini ta'minlaydigan eng muhim risk boshqaruvi mexanizmidir.

Moorad Choudhryning ilmiy qarashlari shuni ko'rsatadiki, tijorat banklarining barqaror faoliyati, ularning aktiv-passivlar tuzilmasi qay darajada muvozanatli, boshqaruv jarayoni qay darajada strategik, ehtiyotkor va texnologik yondashuvga asoslanganiga bevosita bog'liqdir.

Boshqa bir amerikalik iqtisodchi Frederix Mishkinning fikricha, tijorat banklari moliyaviy tizimning markaziy bo'g'ini bo'lib, ularning asosiy vazifasi resurslarni samarali taqsimlash, iqtisodiyotda likvidlik yaratish va moliyaviy vositachilik orqali iqtisodiy faollikni qo'llab-quvvatlashdan iboratdir. Mishkin o'zining "The Economics of Money, Banking, and Financial Markets" asarida bank balansining tuzilishi, aktiv va passivlarning tabiati hamda ularga xos risklar bozor mexanizmlariga qanchalik kuchli ta'sir qilishini batafsil yoritadi [3]. Uning ta'kidlashicha, bank aktivlari, xususan kreditlar, investitsion qimmatli qog'ozlar va likvid aktivlar o'zaro turlicha darajadagi risk va daromadlilikka ega bo'lib, banklar ushbu aktivlarni shakllantirishda foiz riskini, kredit riskini va likvidlik riskini muvozanatli boshqarishi zarur.

Mishkinning qarashlari shuni ko'rsatadiki, zamonaviy sharoitda banklar samarali faoliyat yuritishi uchun nafaqat kreditlash va depozit jalb qilish bilan cheklanmasligi, balki aktiv-passivlarni boshqarishning zamonaviy modellari orqali risklarni chuqur baholashi zarur. Olimning nazariy qarashlari banklar faoliyati, risklarni boshqarish, pul-kredit siyosati va moliyaviy bozorlarning o'zaro bog'liqligini chuqur yoritib, tijorat banklari uchun ilmiy asoslangan samarali boshqaruv strategiyasini shakllantirish imkonini beradi.

O'zbekistonlik iqtisodchilar tadqiqotlarida tijorat banklarining aktiv va passivlarini samarali boshqarish bank tizimining umumiy barqarorligi va iqtisodiyotning moliyaviy infratuzilmasini mustahkamlashda hal qiluvchi omil sifatida talqin qilinadi. Xususan, iqtisodchi olim va professor A. Vahobov bank aktivlari sifatini oshirish va kredit portfelini diversifikatsiya qilish tijorat banklarining moliyaviy barqarorligi uchun asosiy shart ekanini ta'kidlab, aktivlar tarkibini shakllantirishda risklar darajasini aniq baholash va qaytarilish koeffitsientlarini hisobga olish zarurligini qayd etadi [4].

Umuman olganda, barcha ilmiy manbalar aktivlar tarkibini shakllantirishda risk va daromadlilik o'rtasidagi muvozanatni saqlash, ularni sifat darajasi bo'yicha tasniflash, kredit portfeli va investitsion portfelni diversifikatsiya qilish bank

faoliyatining asosiy mezonlari sifatida ta'kidlanadi. Passivlar bo'yicha esa barqaror, arzon va uzoq muddatli resurs bazasini shakllantirish, depozitlar tarkibini optimallashtirish hamda majburiyatlarni boshqarishning zamonaviy uslublari muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Bundan tashqari, aktiv va passivlar o'rtasidagi to'g'ri nisbatni saqlash bankning likvidlik ko'rsatkichlariga, risklarni qoplash imkoniyatiga va umumiy moliyaviy natijalariga sezilarli ta'sir ko'rsatishini ta'kidlaydi hamda bank aktiv va passivlarini boshqarish jarayoni chuqur tahlil, xalqaro standartlarga mos yondashuvlar va samarali risk-menejment tizimini talab etishini ko'rsatadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur maqolada kuzatish, ma'lumotlarni yig'ish, umumlashtirish, taqqoslash, xorijiy va mahalliy olimlarning mavzu borasida ilmiy qarashlari hamda sohadagi muammolar va ularning yechimlari bo'yicha izlanishlari o'rganilib, xulosa va takliflar berildi.

Tahlil va natijalar

Banklar o'z faoliyatlarini amalga oshirishlari uchun kerakli qimmatliklar: binolar, asbob-uskunalar, hozirgi zamonda tezkor hisobkitobni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan kompyuterlar, naqd pul mablag'lari va kreditga berilgan mablag'lari bo'ladi. Banklarning mavjud bunday mablag'lari banklar buxgalteriya balansida iqtisodiy mazmuniga ko'ra (asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar, naqd pullar) qiymatlari guruhlashtirilib bank balansining aktiv tomonida ko'rsatiladi. Shuning uchun ham xalqaro miqyosda bank mablag'larini - aktivlari deb aytishadi.

O'zbekiston bank tizimi iqtisodiyotning o'tish jarayoni va tobora globallashtirib borayotgan xalqaro amaliyotda bank passivlari hamda aktivlarini samarali boshqarish va ularni iqtisodiyotning real sektorini rivojlantirishga katta ahamiyat qaratmoqda.



1-rasm. 2025-yilning birinchi yarim yili holatiga ko'ra O'zbekiston bank sektori⁵

2025 yilning birinchi yarim yilligi holatiga ko'ra, tijorat banklarining aktivlari va kredit portfelini o'sishida sezilarli o'zgarishlar kuzatilgan. Umumiy aktivlar hajmi yil boshiga nisbatan 11% o'sib, 769,3 trillion so'mga yetdi va yilning birinchi yarmida 852,2 trillion so'mga ko'tarildi. Aktivlar bo'yicha yetakchi banklar qatorida O'zmilliybank 141,8 trillion so'm bilan yetakchilik qilsa, keyingi o'rinlarda SQB 97,2 trillion so'm va Agrobank 95,7 trillion so'm bilan o'zgarishlar bo'yicha salbiy trendni sezilarli darajada kamaytirdi. Foiz ko'rsatkichlarining o'sishida Hayot bank 3,8% va Garant bank 4% bilan yetakchi bo'ldi, Apex bank esa 1,8% bilan biroz pastroq o'sish ko'rsatdi. Kredit portfelini hajmi yil boshiga nisbatan 7,9% o'sib, 533,1 trillion so'mdan 575,2 trillion so'mga yetdi. Kredit portfelini bo'yicha yetakchi banklar Agrobank 74 trillion so'm, SQB 68,9 trillion so'm va Kapitalbank 35 trillion so'm bilan o'sish sur'atlarini namoyish etdi. Foiz ko'rsatkichlari bo'yicha esa Hayot bank 2,8% bilan yetakchi bo'lib, Oktobank va AVO bank mos ravishda 0,4% va 0,5% o'sishni ko'rsatdi. Shu bilan birga, kredit portfelini hajmi bo'yicha qisqarishlar ham kuzatildi: Tenge bank, Asia Alliance Bank va Ipoteka bankning portfelini salbiy tendensiyada bo'lib, mos ravishda 0,4%, 0,13% va 0,03% kamaydi. Foiz ko'rsatkichlari bo'yicha kredit portfelini eng ko'p qisqargan banklar qatorida Tenge bank 3,8%, Uzum bank 0,1% va Saderat bank 0,02% bilan qisqarishlarni namoyish etdi. Bu ko'rsatkichlar O'zbekistonda xususiy banklar asta-sekin o'z pozitsiyalarini mustahkamlab borayotganini anglatadi.

Ko'rsatkichlar nomi	01.11.2024 y.		01.11.2025 y.		O'zgarishi, foizda
	mlrd. so'm	ulushi, foizda	mlrd. so'm	ulushi, foizda	
Aktivlar					
Kassadagi naqd pul va boshqa to'lov hujjatlari	21,441	2.8%	27,286	3.1%	27%
Markaziy bankdagi mablag'lar	25,763	3.4%	30,472	3.5%	18%
Boshqa banklardagi mablag'lar-rezident	32,551	4.3%	32,806	3.7%	1%
Boshqa banklardagi mablag'lar-norezident	43,717	5.8%	44,277	5.0%	1%
Investitsiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlar	58,627	7.8%	84,002	9.6%	43%
Mijozlarning moliyaviy instrumentlar bo'yicha majburiyatlari	1,039	0.1%	810	0.1%	-22%
Kredit qo'yimalari, (sof)	505,023	67.1%	574,112	65.4%	14%
Asosiy vositalar, (sof)	23,896	3.2%	29,520	3.4%	24%
Aktivlar bo'yicha hisoblangan foizlar	24,996	3.3%	27,613	3.1%	10%
Bankning boshqa xususiy mulklari	6,225	0.8%	8,076	0.9%	30%
Boshqa aktivlar	9,773	1.3%	18,434	2.1%	89%
Jami aktivlar	753,052	100%	877,409	100%	17%

2-rasm. 2024-2025-yillar oralig'ida O'zbekistondagi tijorat banklarining jamlanma manbasi⁶

Umumiy aktivlar hajmi bir yil ichida sezilarli darajada, ya'ni 17 %ga o'sib, 753,052 milliard so'mdan 877,409 milliard so'mga yetgan. Bankning asosiy faoliyati bo'lgan kredit qo'yimalari (sof) bu davrda ham aktivlar tarkibidagi eng katta ulushni (67.1% dan 65.4% gacha) egallab, 14 %ga o'sgan. Bu bankning kreditlash faoliyati barqaror rivojlanayotganini ko'rsatadi, ammo ulushining biroz kamayishi boshqa aktivlar turlari tezroq o'sganligini bildiradi. Xususan, investitsiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlar eng yuqori o'sish sur'atiga ega bo'lib, 43 %ko'paygan va ularning umumiy aktivlardagi ulushi 7.8% dan 9.6% gacha oshgan, bu bankning o'z aktivlarini diversifikatsiya qilishga va bozor instrumentlaridan qo'shimcha daromad olishga intilayotganini ko'rsatadi. Likvidlikni ta'minlovchi aktivlar, jumladan, kassadagi naqd pul 27 %ga, Markaziy bankdagi mablag'lar esa 18 %ga o'sgan, bu bankning likvidlik darajasi yaxshilanganidan yoki operatsion hajmining kengayishidan dalolat berishi mumkin. Boshqa banklardagi rezident va norezident mablag'arning o'zgarishi nisbatan past bo'lib, atigi 1 %ni tashkil etgan, bu sohalarida barqarorlikni anglatadi. Shuningdek, boshqa aktivlar 89 %ga o'sib, bankning umumiy o'sishiga sezilarli hissa qo'shgan. Yagona kamayish mijozlarning moliyaviy instrumentlar bo'yicha majburiyatlarida (-22%) kuzatilgan, ammo bu aktivning umumiy ulushi juda kichik bo'lgani sababli jami aktivlar dinamikasiga katta ta'sir ko'rsatmagan.

Depozitlar	295,948	46.1%	377,565	50.6%	28%
Markaziy bankning vakillik hisobvarag'i	2,265	0.4%	975	0.1%	-57%
Boshqa banklarning mablag'lari-rezident	27,604	4.3%	29,409	3.9%	7%
Boshqa banklarning mablag'lari-norezident	17,576	2.7%	16,168	2.2%	-8%
Olingan kreditlar va lizing operatsiyalari	231,639	36.1%	244,744	32.8%	6%
Chiqarilgan qimmatli qog'ozlar	29,656	4.6%	36,496	4.9%	23%
Subordinar qarzlar	12,787	2.0%	12,490	1.7%	-2%
To'lanishi lozim bo'lgan hisoblangan foizlar	9,431	1.5%	8,813	1.2%	-7%
Boshqa majburiyatlar	15,332	2.4%	18,956	2.5%	24%
Jami majburiyatlar	642,239	100%	745,616	100%	16%

3-rasm. 2024-2025-yillar oralig'ida O'zbekistondagi tijorat banklarining jami majburiyatlari⁷

Tijorat bankining 2024-yildan 2025-yilgacha bo'lgan davrdagi jami majburiyatlari 16 %ga o'sib, 642,239 milliard so'mdan 745,616 milliard so'mga yetgan. Bankning mablag' manbalaridagi eng katta ulushni an'anaviy ravishda depozitlar tashkil etadi, ular 28 %ga o'sib, 377,565 milliard so'mga yetgan va umumiy majburiyatlar tarkibidagi ulushi 46.1 %dan 50.6 %gacha oshgan. Bu mijozlarning bankka bo'lgan ishonchi mustahkamlanayotganidan va bankning depozit bazasini muvaffaqiyatli kengaytirayotganidan dalolat beradi. Ikkinchi yirik manba bo'lgan olingan kreditlar va lizing operatsiyalari 6 foizga o'sgan bo'lsa-da, uning umumiy majburiyatlardagi ulushi 36.1 %dan 32.8 %gacha pasaygan. Bu bankning tashqi qarzga bo'lgan qaramligini kamaytirish va depozitlar hisobiga moliyalashtirishga o'tayotganini ko'rsatishi mumkin. Bankning moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilishga urinishlari chiqarilgan qimmatli qog'ozlarning 23 %ga o'sishida ham yaqqol namoyon bo'lgan. Shu bilan birga, Markaziy bankning vakillik hisobvarag'idagi mablag'lar 57 %ga keskin kamaygan. Umuman olganda, bankning jamlanma manbalari barqaror o'sgan, asosan depozit bazasining mustahkamlanishi va qimmatli qog'ozlar chiqarish orqali diversifikatsiya hisobiga amalga oshgan, shu bilan birga tashqi qarzga qaramlik kamaygan.

Xulosa

Tijorat banklarida aktivlar va passivlarni samarali boshqarish moliyaviy barqarorlikning eng muhim omillaridan biri bo'lib, bank balansining likvidligi, rentabelligi va risklarga chidamliligini ta'minlaydi. Aktivlar tarkibini diversifikatsiya qilish, kredit portfelining sifatini oshirish, likvid aktivlar ulushini belgilangan normativlarda ushlab turish bankning daromad olish imkoniyatlarini kengaytiradi va kredit risklarini kamaytiradi. Passivlar bo'yicha esa depozitlar bazasining barqarorligini ta'minlash, arzon va uzoq muddatli resurslarni jalb qilish, majburiyatlar muddat tuzilmasini maqbullashtirish bankning likvidlik darajasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Aktiv-passivlar o'rtasida optimal muvozanatning saqlanishi foiz risklari,

valyuta risklari hamda likvidlik xavfini kamaytiradi, bu esa tizimning barqaror ishlashini ta'minlab, banklarning iqtisodiyotga kredit orqali ko'rsatadigan qo'llab-quvvatlovchi rolini mustahkamlaydi. Shu boisdan aktiv va passivlarni strategik boshqarish banklarning nafaqat joriy moliyaviy holati, balki uzoq muddatli raqobatbardoshligi va barqarorligini ta'minlovchi asosiy omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvi 2015-yil 13-iyundagi 14/3-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Tijorat banklarida aktivlar sifatini tasniflash va aktivlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash uchun zaxiralar shakllantirish hamda ulardan foydalanish tartibi to'g'risida"gi Nizom
2. Bank Asset and Liability Management: Strategy, Trading, Analysis. (<https://www.mooradchoudhry.com>)
3. The Economics of Money, Banking, and Financial Markets. (<https://www.pearson.com>)
4. Z.Mamadiyarov, M.Maxmudova, M.Kurbonbekova Bank ishi. Darslik. – T.: "Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi", 2021 – 160 b.
5. Darslik / Sh.Z.Abdullayeva; O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi - T.: "Iqtisod-Moliya", 2018. - 756b.
6. <https://cbu.uz/uz/statistics>